

## OG‘ZAKI MULOQOTDA ELLIPSIS VA SUBSTITUTSIYA

Saparbaeva Gulandam Masharipovna-Tarjima nazariyasi va amaliyoti  
kafedrası dotsenti, Urganch davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muloqot jarayonida jumla tarkibida ayrim elementlarning tushirib qoldirilishi yoki almashtirilishi muayyan me’zonga asoslanishi borasida turlicha qarashlar mavjud. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ellipsis va substitutsiya xodisasiga izoh berilgan. Tushirib qoldirilgan elementning jumla mazmunidan anglanishiga oid fikrlar taqdim qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ellipsis, substitutsiya, element, anaforik, kataforik, murojaat

Tilshunoslikda og‘zaki va yozma matnning grammatik tuzilishi taqozo qiladigan birliklarning muloqot vaziyatida so‘zlovchi tomonidan maqsadli tushirib qoldirilishi ellipsis deb hisoblanadi. Bunda tushirib qoldirilgan element mazmunini kontekstdan anglab olish mumkin bo‘ladi. Bu esa muloqot matnida qo‘llaniladigan istalgan bir yoyiq gap bo‘lagini tushirib qoldirish mumkin, degan noto‘g‘ri xulosaga sabab bo‘lmasligi lozim. Kontekst ichida tushirib qoldirilgan elementga izoh beruvchi biron - bir ma’noli bo‘lak bo‘lgani holda, tushirilgan elementga muloqot holatida ehtiyoj bo‘lmaydi. Og‘zaki muloqot aktida ellipsis o‘z tuzilishi va shakli bilan ajralib turadi. Ikkita ishchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot akti:

– Sen belgilab bersang, men devorga ilib chiqaman. (situativ to‘liqsiz gap)

Ushbu jumlada belgilab bermoq va ilib chiqmoq o‘timli fe’llari talab qiladigan to‘ldiruvchi ushbu jumladan muloqot ishtirokchilari tomonidan unga zaruriyat yo‘qligi sababli tushirib qoldirilgan, chunki gapda ushbu to‘ldiruvchi ifodalaydigan ob’ekt muloqot ishtirokchilariga tanish bo‘ladi. Demak, ellipsis muloqot ishtirokchilari vaziyatining pragmatik holdagi tanlovi bo‘lib, u majburiy emas, balki ixtiyoriy tanlanadigan, matnning icham va tushunarli bo‘lishini ta’minlovchi sintaktik uslubiy birlik hisoblanadi.

Shu o‘rinda ellipsisning turi matn ichida tushirib qoldirilgan elementning anaforik yoki kataforik murojaati shakllariga qarab farqlanishi mumkin, masalan: Bolalar kichik qutilarni olib kelsin, kattalar kattalarini. (Situativ to‘liqsiz gap)

Bunda olib kelsin kesimi gapning ikki qismiga birdek tegishli holat deb qabul qilinadi. Anaforik ellipsis barcha murojaat shaklida bir xil leksik birliklar bilan



ifodalangan bo‘lsa-da, uning og‘zaki muloqot aktidagi hamda diskurs tilshunosligida bayoni farq qiladi. Masalan:

- Ulgursangiz, besh yarimdan oldin shu yerda bo‘ling. (anaforik)
- Keldimi? - Keldi. (kataforik)

To‘liq forma: «Agar siz ulgursangiz, soat besh yarimdan oldin shu yerda bo‘ling». Ushbu gap grammatik tahlil qilinganda quyidagi so‘zlar tushirib qoldirilganligini aniqlash mumkin. Agar – bog‘lovchi, siz – ega, soat – hol birikma qismi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fe’l yoki kesim ellipsis turi muloqot kontekstida muammo bo‘lishi mumkin. Funktsional grammatikada bunday ellipsisning takroriy va almashtiruvchi ellipsis turlari farqlangan. O‘z nomidan ko‘rinib turgandek, takroriy ellipsis fe’l birikmani takrorlaydi, masalan: Kimdir bu savolga javob beradimi? –Men beraman

Fe’l ellipsisning ikkinchi turi jumla tarkibidagi yordamchi elementlarni yoki kesim zamonini almashtirish bilan izohlanishi mumkin. Masalan:

- Bolam, uy vazifalaringni bajarmaysanmi?
- Bajardim! O‘ynamoqchiman!

O‘zbek tilidagi og‘zaki muloqot aktida butun boshli qo‘shma gapning bir qismi tushib qolish holatlari kuzatiladi. Bunday holatlar ko‘pincha hech qisi yo‘q, zarari yo‘q, havotirlanmang, Ollohga tavakkal, uzr, buning iloji yo‘q, ha, shunday, mana shunaqa, albatta kabi birikmalar, shuningdek, imo-ishoralar bilan ham almashtirilishi mumkin, masalan:

- Siz meni eshityapsizmi?
- Albatta.<sup>1</sup>

Bunday elliptik almashtirishlar muayyan vaziyat va holatni inobatga olgan holda, to‘g‘ri tanlanishni taqozo qiladi. Masalan:

- Ko‘zingizga qarab yursangiz bo‘lmaydimi? Naq urib yiqitay dedingiz-a?
- Uzr! Ko‘rmabman!

To‘liq forma: «Uzr, mendan o‘tdi. Ko‘zimga qarab yurmaganim uchun ko‘rmabman. Shunga sizni naq urib yiqitay debman».

Bunda so‘zlovchi qilgan xatosi uchun uzr so‘rayapti, ammo ellipsis shaklda. Agar muloqot akti to‘liq aytilsa, tinglovchining navbatdagi munosabati, ya’ni

<sup>1</sup> Дадахонов А., Дўсимбетова Н., Панферова И. Ўзбекча-инглизча-русча сўзлашгич. – Тошкент, 2013. – Б.132.



presuppozitsiya noaniq bo‘lib qoladi. Xususan, jabrlanuvchining asabiy holatini hisobga olganda, to‘liq shakldagi jumlaning kesatq ma’nosida qabul qilish ehtimoli kuchliroq. Chunki to‘liq shakldagi jumla tarkibida uzr so‘rash ma’nosi ellipsis shakldagiga nisbatan kuchsizroq ifodalangan. Demak, og‘zaki muloqot aktida ellipsis so‘zlovchining diktumga munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, Uzr! Ko‘rmabman! iborasi o‘rniga zarari yo‘q, mana shunaqa bo‘ladi, ha, mana shunday birikmalari tanlanishi muloqot akti mazmunini butunlay qarama-qarshi ma’noga o‘zgartirishi ham mumkin. S.Sulgerning leksik-grammatik birliklarning diktumga ta’siri borasidagi fikrlari o‘zbek tilida o‘z isbotini topmadi, deb hisoblash mumkin.

Substitutsiya, ya’ni almashtirish ellipsisga o‘xshaydi, ammo kontekstda ilgari mutlaqo uchramagan so‘z yoki birikma paydo bo‘ladi. Masalan:

– Jo‘jalardan ko‘pchiligi kasallangan. O‘lib qolmasa edi!

– Bittasi! (ellipsis-O‘lib qoldi bittasi)

– Nima? O‘ldimi?

– Ha.

Ikkinchi vaziyat:

– Kechqurun biroz yengil tamaddi qilmoqchiman, marhamat qilib, sho‘rva olib keling!

– Menga ham! (Ellipsis – Kechqurun men ham biroz yengil tamaddi qilmoqchiman, marhamat qilib, menga ham sho‘rva olib keling!)

Uchinchi vaziyat:

– Yordam kerakmi? Agar kerak bo‘lsa ayt, bo‘lmasa ketaman!

– Yo‘q shart emas. Ruxsat. (Ellipsis-ketavering)

Muloqot aktida shunday birliklarni qo‘llash suhbat ishtirokchilari uchun qulay bo‘lib, ifoda matnining ixchamligini ta’minlaydi. Biz yuqorida keltirib o‘tgan ellipsis va almashtirishga oid misollar muloqot aktida qo‘llanilishi shunchalik keng bo‘lgani uchun deyarli barcha grammatika va stilistikaga oid adabiyotlarda og‘zaki muloqot matniga xos uslub deb baho berilgan. Chunki og‘zaki muloqot akti muayyan vaziyatda, qisqa vaqt ichida sodir bo‘lganligi uchun uni muloqot konteksti to‘liq qo‘llab -quvvatlab turgani holda, qo‘shimcha ravishda tushuntirish, takrorlash, tasvirlash yoki izohga ehtiyoj bo‘lmaydi. Og‘zaki muloqot aktida vaqt birligi va unda ma’noli so‘z urg‘usi hamda gap urg‘usiga, xususan, ohangga alohida e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday M. Introduction to Functional Grammar: 4<sup>th</sup> edition, U.K. Birmingham: Companion-Website. 2014. – P. 236.
2. Дадахонов А., Дўсимбетова Н., Панферова И. Ўзбекча-инглизча-русча сўзлашгич. -Тошкент, 2013. – Б. 89.132.
3. Красних В.И., Гаюпов С.И. Ўзбекча-русча ва русча-ўзбекча сўзлашув китоби. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2019. – Б. 73.
4. Сулейманова Н. К. ГЁТЕ И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАК ШЕДЕВР МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //PJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 343-346.
5. Рахимова Г. Ю. ФОРМАЛЬНАЯ СТРУКТУРА АНГЛИЙСКИХ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ //ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ. – 2020. – Т. 57. – №. part 6. – С. 48.
6. Рахимова Г. Ю. ФОРМАЛЬНАЯ СТРУКТУРА АНГЛИЙСКИХ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ //Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe. – 2020. – №. 5-6. – С. 48-50.
7. Рахимова Г. Ю., Жуматов Р. Я., Норбоев У. Система номинативных единиц современного английского языка //The Seventh European Conference on Languages, Literature and Linguistics. – 2015. – С. 21-26.
8. Рахимова Г. Ю., Якубова З. Ш. СИСТЕМА НОМИНАТИВНЫХ ЕДИНИЦ СОВРЕМЕННОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА //Евразийский союз ученых. – 2020. – №. 7-3. – С. 14-17.
9. Рахимова Г. Ю., Якубова З. Ш. Система номинативных единиц современного английского языка //Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 7-3 (76). – С. 14-17.
10. Oktambaevna P. N. Periodic functional study of military terms in our national language //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 139-144.
11. Oktambaevna P. N. Periodic functional study of military terms in our national language //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 139-144.

12. Surayyo I. et al. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF TEXT AND LANGUAGE ADVERTISING //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 15. – С. 75-77.
13. Сулейманова Н. К. ГЁТЕ И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАК ШЕДЕВР МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 343-346.
14. Сулейманова Н. К. ДИАЛОГ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА КАК ОСНОВА ЦЕЛОСТНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 1362-1364.
15. Shavkatovna A. N. et al. DIFFICULTIES STUDENTS FACE WHILE LEARNING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE IN UZBEK SCHOOLS //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 81-83.
16. Litvinenko E. V. et al. Phono-morpho-lexical similarity of auxiliary morphemes of the dictionary «mukaddimat al-adab»(Xii-century) az-zamakhshari with kazakh language //Utopía y Praxis Latinoamericana. – 2020. – Т. 25. – №. 12. – С. 302-308.
17. Yuldashovna R. G. et al. Linguistic Considerations on the Functional Semantics of English Reduplicative Elements //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
18. Yuldashovna R. G. The Semantic Structure of a Compound Word in Languages //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
19. Yuldashovna R. G. The Semantic Structure of a Compound Word in Languages //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
20. Farkhodovna M. R., Yuldashovna R. G. AN ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO TERMS AND LANGUAGE //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – Т. 12. – №. 06. – С. 25-27.
21. Farkhodovna M. R., Yuldashovna R. G. AN ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO TERMS AND LANGUAGE //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – Т. 12. – №. 06. – С. 25-27.
22. Yuldashovna R. G. Analyses of reduplicative words in English language //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 44-48.

23. Yuldashovna R. G. Analyses of reduplicative words in English language //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 44-48.

24. Yuldashovna R. G., Kudratovna B. D. The scientific features of simultaneous translation (conference translation) and the current role in the process of translation //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 49-52.

25. Yuldashovna R. G., Kudratovna B. D. The scientific features of simultaneous translation (conference translation) and the current role in the process of translation //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 49-52.

26. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. Структурно-семантические особенности и коммуникативные функции редупликативных слов в английском языке //Архивариус. – 2020. – №. 5 (50). – С. 39-42.

27. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //Контактная информация организационного комитета конференции. – С. 39.

28. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //Архивариус. – 2020. – №. 5. – С. 39-42.

29. Masharipovna S. G., Matnazarovna P. M., Toxirovna E. Y. VOCABULARY TEACHING STRATEGIES USING IN ESP CLASSES //Кронос: общественные науки. – 2019. – №. 2 (16). – С. 17-18.

30. Yesmurzaeva A. THE ACT OF ORAL COMMUNICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 89-91.





31. Ibragimova X. S., Saparbaeva G. M. OG ‘ZAKI MULOQOT AKTIDA OBYEKTIV VA SUBYEKTIV MODALLIK KATEGORIYALARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 7. – С. 102-105.
32. Saparbaeva G., Jumaniyazova S. THE INTERNET IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B5. – С. 62-66.
33. Saparbaeva G. M., Azatova N. A. TRANSLATION STRATEGIES OF CULTURE-SPECIFIC WORD INFAIRYTALES FROM AND INTO THE UZBEK LANGUAGE //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
34. Saparbaeva G. M. et al. THE MAIN THEORETICAL PROBLEMS OF TRANSLATION OF CULTURE SPECIFIC CONCEPT //Студенческий вестник. – 2021. – №. 4-7. – С. 44-47.
35. Saparbayeva G. M. et al. THE ESTABLISHMENT OF THESAURUS RELATIONSHIP IN ARTISTIC TEXTS //Интернаука. – 2019. – №. 23-4. – С. 30-31.
36. Saparbayeva G. M. et al. COMPARING THE ANALYSIS OF METAPHORS BOTH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES BASED ON THE NOVEL “SISTER CARRIE” BY THEODORE DREISER //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – С. 71-77.
37. Saparbayeva G. M. et al. TEACHING ENGLISH FOR TOURISM //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – С. 78-82.
38. Saparbayeva G. M., Jamolatdinova L. R., Bobojonova Y. I. THE PECULARITIES OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – С. 64-70.
39. Saparbayeva G. M., Abdullaeva N. F., Bobozhonova Y. I. THE ROLE OF ENGLISH IN TRAVELLING //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17. – С. 59-63.
40. Saparbaeva G. M., Pirnazarova M. M., Egamberganova Y. T. VOCABULARY TEACHING STRATEGIES USING IN ESP CLASSES //Chronos: общественные науки. – 2019. – №. 2. – С. 18-20.

41. Saparbayeva G. M., Abdullaeva N. F., Bobozhonova Y. I. THE ROLE OF ENGLISH IN TRAVELLING //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17. – С. 59-63.
42. Masharipovna S. G., Farhodovna A. N., Igorovna B. Y. The role of English in travelling //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17 (64). – С. 59-63.
43. Saparbayeva G., Ibragimova A. Combining digital stories with the Internet //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 7. – С. 503-505.
44. Gulandom S., Anahon I. Combining digital stories with the internet //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 7. – С. 503-505.
45. Anahon I., Gulamand S. Methods and techniques to integrate digital stories in ELT //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 5. – С. 681-688.
46. Saparbaeva G. M., Matyakubov Z. M., Dusmetova S. M. Semantic analysis of words denoting 'motherland' in english sayings and proverbs //Бакалавр. – 2016. – №. 7-8. – С. 20-25.
47. Tillayevna M. G., Alisherovna O. D., Masharipovna S. G. Social and Linguistic peculiarities of Taboo //European journal of literature and linguistics. – 2016. – №. 2. – С. 23-24.
48. Jumaniyazovich J. A., Masharipovna S. G., Rustamovna S. B. Sanscrit borrowings in English and Uzbek languages //The Seventh European Conference on Languages, Literature and Linguistics. – 2015. – С. 26.
49. Feruza B. NEYROLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHALARIDAN BIRI //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 52-55.

Research Science and  
Innovation House

